

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK  
VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI**

**IQTISODIYOT VA MENEJMENT KAFEDRASI**

**60410200-“Buxgalteriya hisobi” ta‘lim yo‘nalishi**

**105-guruh talabalari uchun**

**RUZIYEVA DILAFRUZ FAXRIDDINOVNAning**

**“Iqtisodiy nazariya” fanidan**

**“Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari” mavzusida ochiq amaliy  
darsining ishlanmasi**

**Samarqand – 2024**

**Tuzuvchi:**

**D.F.Ruziyeva** – “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrası assistenti.

**Taqrizchilar:**

**S.K.Boyjigitov** – SamISI “Marketing” kafedrası dotsenti v.b., i.f.f.d

**I.Salamov** – “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti, I.f.n.

**Kelishildi: O‘quv-uslubiy boshqarma**

**boshlig‘i, professor v.v.b.**

**R.F.Ro‘ziqulov**

**“Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari” mavzusidagi amaliy mashg`ulot  
o`qitish texnologiyasi**

<b>Vahti-2 soat.</b>	Talabalar soni: 26-nafar.
<b>O`quv mashg`ulotining shakli</b>	Binar amaliy munozara.
<b>Amaliy mashg`uloti rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1.Narxning mazmuni va uning vazifalari</li> <li>2.Narx turlari va ularning mazmuni</li> <li>3.Raqobatning turli ko`rinishlari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari</li> <li>4.Narx siyosati va uning O`zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari</li> </ol>
<b>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</b> Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida narxning iqtisodiy mazmuni va vazifalari, shakllanish tamoyillari, narx darajasiga ta`sir ko`rsatuvchi omillar, turli darajadagi raqobat sharoitida narxning shakllanish, narx turlari bo`yicha ko`nikmlarni shakllantirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> mavzu bo`yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; o`z fikrini ilgari surish asoslash, muzokara qilish ko`nikmalarini rivojlantirish; muammoli vazifalarni yechishni faollashtirishni rag`batlantirish; muammoli vazifalarni yechishda eng yaxshi yechimlarni tanlash va baholash ko`nikmalarini hosil qilish; kommuniktsiya, guruhda ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish.	<b>O`quv faoliyatining natijalari:</b> Talaba: Narxning mazmuni uning vazifalari va turlari haqida ma`lumotga ega bo`ladi; Narx siyosati va uning O`zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari haqida tushunchani shakllantiradi; Iqtisodiy o`sisini o`rganadi;
<b>O`qitish usullari va texnikasi</b>	Munozara, muammoli usul. To`g`ridan-to`g`ri jamoaviy aqliy hujum, BBB jadvali
<b>O`qitish vositalari</b>	O`quv qo`llanmalar, o`quv daftarlari, A4 kattaligidagi qog`oz, marker, skotch.
<b>O`qitish shakllari</b>	Frontal, guruh va jamoada ishlash.
<b>O`qitish sharoitlari</b>	Texnik ta`minlangan, guruhlarda ishlashga moslashtirilgan auditoriya.

**“Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari” mavzusidagi amaliy  
mashg`ulotining texnologik kartasi**

<b>Bosqichlar, vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>o`qituvchi</b>	<b>talaba</b>
<b>1-bosqich. Kirish (10 min.)</b>	<p>O`quv mashg`ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o`tkazish rejasini aytadi. O`qitish guruhlarda ishlash texnologiyasi asosida oshib borilishini e`lon qiladi.</p> <p>Mavzuning tayanch iboralari asosida blits-so`rov o`tkazadi.</p> <p>Talabadan javobni eshitadi va mavzu muhokamasi guruhlariga ishlar taqdimotidan so`ng davom etishini e`lon qiladi.</p> <p>Har bir talaba guruh bahosiga mos ravishda baho olishini tushuntiradi, guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (2-ilova). Guruhlarda ishlash natijasi plakat qog`ozlarda ko`rsatilishi kerakligini ma`lum qiladi.</p>	<p>1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>1.2. Savollarga javob beradilar</p>
<b>2-bosqich. Asosiy (20 min.)</b>	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhga ajratadi. O`quv topshiriqlarini tarqatadi (4-ilova).</p> <p>Vazifa butun guruh tomonidan bajarilishini e`lon qiladi. Vazifani bajarishda darslik, ma`ruza matnlari va boshqa qo`llanmalardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. O`quv natijalarini eslatadi.</p> <p>Guruhlarda ishlarni boshlashni e`lon qiladi.</p>	<p>2.1. O`quv topshiriqlarini baholash ko`rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar.</p> <p>Vazifani bajaradilar</p>
<b>3-bosqich. Taqdimot (45 min.)</b>	<p>Taqdimot va guruhlarda ishlash natijalarini o`zaro baholashni tashkil etadi. Javoblarni sharhlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifani bajarish jarayonidagi asosiy xulosalarga e`tiborni qaratadi.</p> <p>Munozara uchun savollar beradi (5-ilova).</p>	<p>3.1. Taqdimot qilishadi, qo`shimchalar qilishadi, baholashadi.</p>
<b>4-bosqich. Yakuniy (5 min.)</b>	<p>Mashg`ulotga yakun yasaydi, faol ishtirokchilarni rag`batlantiradi. Kelajakda amaliyot va o`quv faoliyatidagi ahamiyatini ta`kidlaydi.</p> <p>Mustaqil ish uchun vazifa beradi.</p>	<p>Tinglaydilar, aniqlashtiradilar.</p> <p>Mustaqil ish uchun vazifani yozib oladilar.</p>

## **Amaliy mashg'ulot mavzusi: "Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari"**

### **Reja:**

1. Narxning mazmuni va uning vazifalari
2. Narx turlari va ularning mazmuni
3. Raqobatning turli ko'rinishlari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari
4. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari

**Tayanch iboralari:** narx, ulgurji narx, shartnoma narx, chakana narx, chegaralangan narx, dotatsiyalangan narx, demping narx, nufuzli narx, erkin bozor narxi.

Narx bevosita tovarning qiymati va nafliligi bilan bog'liq bo'lsada, o'zi mustaqil amal qiladigan iqtisodiy kategoriya hisoblanib, bozor mexanizmining muhim tarkibiy unsurlaridan biridir. U o'zining vazifalari orqali barqaror iqtisodiyotning shakllanishi hamda samarali amal qilishiga, bozor muvozanatining ta'minlanishiga, milliy daromadning iqtisodiyot turli tarmoq va sohalari, xo'jalik yurituvchi subyektlari bo'yicha taqsimlanishiga, aholining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishiga sharoit yaratadi. Shuningdek, u ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirib, sog'lom raqobat muhitining yaratilishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

### **Narx quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:**

- 1. Muvozanatlikni ta'minlash vazifasi.** Bunda narx bozorda talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta'sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi. Bozor narxi – bu muvozanatlashgan narx bo'lib, u birinchidan, tovarlarning sotilishini ta'minlaydi, ikkinchidan, bozorda tovarlar taqchilligini yuzaga keltirmaydi.
- 2. Qiymat va naflilikni o'lchash vazifasi.** Narx qiymat va naflilikning puldagi ifodasi deb aytamiz, chunki qilingan sarf-xarajatlar va olingan natijalar (foйда yoki zarar) narxlar asosida hisob-kitob qilinadi.
- 3. Tartibga solish vazifasi.** Bozor holati (kon'yunkturasi) talab va taklif hamda ularning nisbatiga bog'liq. Talabning ortishi muayyan tovarni ishlab chiqarishni kengaytirishni, aksincha holatda esa tovar ortiqchiligini, uni ishlab chiqarishni qisqartirish zarurligini bildiradi.
- 4. Raqobat vositasi vazifasi.** Narx raqobat kurashining eng muhim vositasi hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchilar o'z raqiblarini engish uchun narxni pasaytirish usulidan foydalanishlari mumkin. Demak, narxni o'zgartirib turish usuli raqobatda keng qo'llaniladi.
- 5. Ijtimoiy himoya vazifasi.** Narx aholining kam daromad oluvchi ayrim qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish vazifasini ham bajaradi. Narxning bu vazifasi tovar (xizmat)lar ijtimoiy dotatsiyalangan narxlar bo'yicha sotilganda bajariladi. Narxlar tizimida ularning ayrim turlarining iqtisodiy mazmunini qisqacha qarab chiqamiz.

**Ulgurji narx** – ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta miqdordagi tovarlar bir yo‘la ko‘tarasiga sotilganda qo‘llaniladigan narx. Ulgurji narx ishlab chiqaruvchilar va ta‘minlash-sotish tashkilotlari xarajatlarini qoplashi hamda ularning ma‘lum miqdorda foyda ko‘rishini ta‘minlashi zarur. Ulgurji narx tovar birjalari va savdo uylarida ham qo‘llaniladi.

**Shartnoma narx** – sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narx. Shartnoma narx odatda shartnoma bitimi amal qilib turgan davrda o‘zgarmaydi. Mazkur narx ham milliy, ham xalqaro bozorlarda qo‘llaniladi. U xalqaro bozorda qo‘llanilganda tovar (xizmat)larning jahon narxlariga yaqin turadi.

**Chakana narx** – tovarlar bevosita iste‘molchilarga sotiladigan narx. Chakana narxga tovarning ulgurji narxi, chakana savdo tashkilotlarining xarajatlari va ularning oladigan foydasi kiradi.

Davlatning narxlarni tartibga solish faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotatsiyalangan narxlarni vujudga keltiradi.

**Chegaralangan narx** – davlat tomonidan yuqori va quyi chegaralari belgilanib, shu doirada o‘zgarishi mumkin bo‘lgan narx. Bunday narx yordamida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narx darajasini nazorat qiladi.

**Dotatsiyalangan narx** – davlat budjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narx. Bunday narxdan kam daromadli oilalar, beva bechoralar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur ne‘matlar bilan eng kam darajada ta‘minlab turishda foydalaniladi.

**Demping narx** – bozorda o‘z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini bozordan siqib chiqarish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan maxsus narx. U «bozorga kirib olish narxi» deb ham ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir qismidan kechib yuboriladi.

**Nufuzli narx** – sotish hajmini o‘zgartirmasdan, yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan narx. Bu narxni qo‘llash uchun bozorda raqobat cheklangan bo‘lib, monopol vaziyat mavjud bo‘lishi zarur..

**Erkin bozor narxi** – bu talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxidir. Madaniylashgan bozor sharoitlarini vujudga keltirishda erkin narx jamiyat va bozor munosabatlari barcha subyektlari manfaatlarini eng maqbul tarzda uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

Narxlarni erkinlashtirish – iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ko‘p jihatdan shu muammoning hal etilishiga bog‘liq bo‘ladi. Narxlarni erkinlashtirish xomashyo bilan mahsulot ayrim turlarining narxlari, narx bilan aholi va korxonalar daromadlari o‘rtasida mutanosiblikka erishishga qanday yondashilishi bilan farqlanadi. Shu yondashuvlarga asoslanib, narxlar quyidagi yo‘llar bilan erkinlashtiriladi:

- a) narxlarni birdaniga yoki «esankiratadigan» tarzda qo‘yib yuborish;
- b) narxlarning o‘sishini sun‘iy ravishda to‘xtatib qo‘yish;
- v) narxni davlat tomonidan boshqarish va nazorat qilishni ma‘lum darajada saqlab qolish.

## 1-ilova.

### Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglamenti

1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani tayyorlash – 20 min.
2. Ish natijalarini prezentatsiya orqali namoyish qilish – 5 min.
3. Jamoa bo`lib ishlash va guruhlarni baholash – 5 min.

## 2-ilova.

### Guruh bilan ishlash qoidalari

Har biri o`z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;

Har biri berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishlashlari lozim;

Har biri o`zlariga yordam kerak bo`lganda so`rashlari mumkin; Har biri yordam so`raganlarga ko`mak berishlari lozim;

Har biri guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

Har biri: “Biz bir kemadamiz, birga cho`kamiz, yoki birga qutilamiz” atamasini

## 3-ilova.

### Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari (ball)

Guruh	Yondoshuvning (to`liqligi, to`g`riligi)	Grafikda to`g`ri tasvirlash	Guruh faolligi	Muammo nifaol yechilishi	Ballar yig`indisi
	(1,0)	(0,6)	(0,4)	(1,0)	(3,0)
1					
2					
3					

## 4-ilova.

Birinchi topshiriq

Savollarga javob bering.

1. Narxning mazmuni va uning vazifalari nimadan iborat?
2. Narx turlari va ularning mazmuni?
3. Narxning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
4. Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari?
5. Narx siyosati nima?
6. “Narxlar qaychisi” nima va undan qanday sharoitlarda foydalaniladi?
7. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari?

## **Ikkinchi topshiriq**

Test savollarini bajaring.

1. Narx nima?

- a) Sotuvchi va xaridor o'rtasidagi kelishuv qiymati
- b) Molning ishlab chiqarish qiymati
- c) Ishlab chiqarish uchun ajratilgan mablag' miqdori
- d) Mahsulotning tannarxi

2. Narxning asosiy funksiyalaridan biri nima?

- a) Reklama qilish
- b) Bozor talabini belgilash
- c) Ayirboshlash jarayonini tashkil qilish
- d) Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish

3. Narx qanday omillarga bog'liq?

- a) Raqobat darajasiga
- b) Mahsulotning sifatiga
- c) Talab va taklifga
- d) Yuqoridagi barcha omillarga

4. Talab va taklif o'zaro qanday munosabatda bo'ladi?

- a) Bir-biriga bog'liq emas
- b) Talab oshganda, narx pasayadi
- c) Talab oshganda, narx ham oshadi
- d) Talab pasayganda, narx ham oshadi

5. Narxlarning shakllanishida quyidagilardan qaysi biri muhim rol o'ynaydi?

- a) Davlat aralashuvi
- b) Xaridorning xarid quvvati
- c) Valyuta kurslari
- d) Yuqoridagilarning barchasi

6. Narxlarning turlari qaysi?

- a) Ulgurji va chakana narxlar
- b) Tashqi va ichki narxlar
- c) Real va nominal narxlar
- d) Yuqoridagilarning barchasi

7. Bozor iqtisodiyotida narx qanday shakllanadi?

- a) Davlat tomonidan belgilangan tartibda
- b) Talab va taklif o'rtasidagi muvozanatda
- c) Ishlab chiqaruvchilar tomonidan mustaqil ravishda
- d) Banklarning foiz stavkasiga bog'liq holda

8. Narxning ijtimoiy mohiyati nimani anglatadi?

- a) Mahsulotning iqtisodiy qiymati
- b) Bozor subyektlarining kelishilgan qiymati
- c) Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatni
- d) Mahsulotning texnik xususiyatlarini

9. Bozor narxining o'zgarishiga qaysi omil ta'sir ko'rsatmaydi?

- a) Aholi soni



- b) Ob-havo sharoiti
  - c) Mahsulotning logotipi
  - d) Transport xarajatlari
10. "Tannarx" nimani anglatadi?
- a) Mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan jami xarajatlar
  - b) Sotuvdagi oxirgi narx
  - c) Mahsulotning foyda miqdori
  - d) Xaridorning to'lagan umumiy summasi
11. Narxlarning shakllanishi jarayonida qaysi usul qo'llaniladi?
- a) Xarajatlar asosida narx belgilash
  - b) Raqobatchilar narxiga asoslanish
  - c) Talab va taklif tahlili asosida narx belgilash
  - d) Yuqoridagi barcha usullar
12. Erkin narx nima?
- a) Davlat tomonidan belgilangan narx
  - b) Bozor mexanizmi orqali shakllangan narx
  - c) Ishlab chiqaruvchilar tomonidan belgilanadigan narx
  - d) Mahsulotning ma'lum bir vaqtdagi o'rtacha qiymati
13. Narxga ta'sir qiluvchi ichki omillar nimadan iborat?
- a) Ishlab chiqarish xarajatlari va sifat
  - b) Xaridorlarning ehtiyojlari
  - c) Davlat iqtisodiy siyosati
  - d) Valyuta kurslari
14. Davlat narxlarni qanday boshqaradi?
- a) Erkin bozor tamoyillarini cheklash orqali
  - b) Soliqlar va subsidiyalar orqali
  - c) Maxsus qonunlar qabul qilish orqali
  - d) Yuqoridagilarning barchasi
15. Narxga ta'sir qiluvchi tashqi omillar qaysilar?
- a) Iqtisodiy inqirozlar
  - b) Soliqlar darajasi
  - c) Xalqaro savdo sharoitlari
  - d) Yuqoridagi barcha javoblar